

**IX-XII ASRLARDA ASRLARDAGI TURKIY XALQLAR
DAVLATCHILIGI TARAQIYYOTI (SOMONIYLAR DAVLATI)**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti Tarix yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Qodirova Munibaxon Iqboljon qizi
[tel:\(+99\)893-506-22-55](tel:+9988935062255)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Somoniylar davlatining boshqaruvi tizimi, davlatda mavjud bo‘lgan mansablar hamda ularning vazifalari, davlat boshqaruvida o‘tkazilgan islohotlarga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ham qisqacha ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Tohiriyalar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Somoniylar, devon, savdo iqtisodiy, madaniy aloqalar, iqto, “sherik”, “barzikor”, Xuroson, “akkor”

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda arablar ta‘siridan deyarli holi bo‘lgan somoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar va xorazmshohlar davlatlari davrida O‘rta Osiyo xalqlarining Yaqin va O‘rta Sharq musulmon davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqlarini rivojlantirishga qulay sharoit yaratildi. O‘rta Osiyoning Buxoro, Samarqand, Marv, Termiz, Urganch, Xiva kabi shaharlari o‘z davrining yirik madaniyat markazlariga aylandi. Bu shaxarlarda savdo-sotiq, ijtimoiy – siyosiy hayot bilan bir qatorda madaniy aloqalar, manaviyat va bilim o‘choqlari rivoj topdi. Bunday madaniy markazlar musulmon Sharqining turli o‘lkalari, Sharq va G‘arb, Shimol va Janub mamlakatlarini bog‘lab turuvchi qadimgi “Ipak yo‘li” an‘analarini davom ettiruvchi aloqa vositalari sifatida mashhur bo‘lib bordilar. O‘rta Osiyoning markazlashgan feodal davlatlari boshqa musulmon

davlatlari bilan aloqalarining kuchayishi yurtdoshlarimizning o‘zga mamlakatlarga borib ilm olish, o‘z hamkasblari bilan muloqat qilishlari va buyuk allomalar bo‘lib yetishishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratdi.[1: 35-b] O‘rta Osiyoda IX – XII asrlarda hukm surgan Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari xalqaro maydonda o‘z mavqeい va tutgan o‘rni jihatidan katta e’tibor va nufuzga ega bo‘ldilar. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptagin, Mahmud G‘aznaviy, To‘g‘rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko‘ra oladigan davlat arboblari davrida O‘rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiysi mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda faoliyat ko‘rsatgan markazlashgan davlatlarda yaratilgan siyosiy hamjihatlik, iqtisodiy-ma’naviy ehtiyojlar, shuningdek, Buyuk Ipak yo‘li orqali xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarning keng rivojlanishi o‘lkamizda qurilish, me’morchilik, adabiyot va san’at, hunarmandchilik, ilm-fan va dinning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Demak, Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish munosabatlari qadimdan tarkib topgan Osiyocha ishlab chiqarish usuli asosiga qurilgan edi. Unda davlat hokimiysi xal qiluvchi rol o‘ynar edi. IX-XII asrlarda davlat mavqyeining o‘sishi iqtisodiy ahvolning yaxshilanishiga turtki berdi. Ko‘chmanchilar xavfining tugatilishi, barqarorlik, yuksak dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik va boshqa sohalar iqtisodning rivojlanishiga turtki bo‘ldi; – Markaziy Osiyoning geografik joylashuvi va Buyuk Ipak yo‘lidagi savdo aloqalari nafaqat iqtisodiy, balki (Sharq va G‘arb o‘rtasida) o‘zaro ilmiy va madaniy tajriba almashuviga katta ta’sir ko‘rsatdi. Buyuk Ipak yo‘li orqali xalqaro aloqalarning rivojlanishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi; – Markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi; –qadimdan asrlar davomida shakllangan milliy davlatchilik tajribasi mavjudligida (Xorazm, Kushon, Eftalitlar, Turk xoqonligi va boshqalar) edi. Chunki milliy davlatchilik an’analari o‘lkamizda markazlashgan davlat tashkil topishiga turtki bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va

Xorazmshohlar davlatlari haqida gapirish mumkin. – Markaziy Osiyoda tarixan yuksak ma’naviy madaniyat shakllandi. Ming yillar davomida vujudga kelgan ma’naviy qadriyatlar turli xil dinlar va xalqlar o‘rtasidagi aloqalar zamirida rivojlandi. Markaziy Osiyo barcha jahon dinlari (zardushtiylik, buddizm, nasroniylik, islom) tarqalgan yagona hudud hisoblanadi. Biz o‘rganayotgan davrda islom dinining davlat va jamiyat mafkurasi darajasiga ko‘tarilishiga, vatanimizning islom dini va madaniyati markaziga aylanishi, o‘lkamizda fiqhshunoslik, tafsir, tasavvuf ilmlarining rivoji shundan dalolat beradi.[2:11-12-13- b]

Somoniylarda davlatchilik tushunchasi. Agar bu masalaga huquqiy nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, IX – X asrlarda O‘rta Osiyoda hech qanday mustaqil davlat bo‘lmagan. “Davlatchilik” atamasining o‘zi huquqiy tushuncha bo‘lgani uchun uning ta’rifi ham huquqiy me’yorlarga asoslanishi lozim. Qonunchilik nuqtai nazaridan, Somoniylar boshqaruv tizimini ham, ularning hukmronligini ham “mustaqil davlat” deb hisoblab bo‘lmaydi. O‘rta asrlarda islom jamiyatida hamisha avvalo din, keyin davlat, keyin esa madaniyat turgan. Islomda davlatning asosini payg‘ambarimiz Muhammad (صلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ) ning ilohiy nozil qilingan qonunlari tashkil qilib, uning asosiy qoidalari shariatda bayon etilgan. Islomda din va hokimiyat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Shuning uchun islom davlatining qurilishi musulmon jamiyati huquqiy me’yorlarining shakllanishi bilan bir vaqtida sodir bo‘lgan. Islom jamiyatida har doim siyosat din bilan uyg‘unlashib ketgan va undan ajralmas deb hisoblangan. XI asrning mashhur musulmon huquqshunosi Abu-l-Hasan Ali ibn Muhammad ibn Habib al-Movardi o‘zining “Nasihat al-muluk” (“Podshohlarga nasihatlar”) asarida bu masalaga alohida bob ajratib, uni “Din davlat asosidir” (الملَكُ اسْسَاسُ الدِّينِ) deb atagan.

Garchi X asrning ikkinchi yarmida Abbosiylar xalifaligida markaziy hokimiyat sezilarli darajada zaiflashgan va mintaqalarda ichki boshqaruv masalalarida deyarli mustaqil bo‘lgan mahalliy ma‘muriyatlarning nufuzi ortgan bo‘lsa ham, barcha mahalliy sulolalar, shu jumladan, Somoniylar ham, faqat rasman bo‘lsa ham

Bag'dod xalifalariga bo'ysunganlar va ularning oliy hokimiyatini tan olganlar. Huquq nuqtai nazaridan, o'sha davrdagi huquqiy me'yorlar esa shariat tomonidan belgilangan, ular u yoki bu hududda xalifalarning hokimi bo'lib, faqat ma'muriy boshqaruv va moliyaviy-iqtisodiy ishlarni yuritishda xalifalar ularga bergan keng huquq va vakolatlarga ega bo'lganlar.

Shuningdek, markaziy boshqaruv dargoh (saroy) va devon (mahkama) orqali amalga oshirilgan. Boshqaruvda amir (hukmdor)ning shaxsiy lashkari bo'lmish turk g'ulomlarining roli katta bo'lgan. Eng obro'li, iqtidorli g'ulomlar xiyolboshi (otliq askarlar boshlig'i), so'ng hojib lavozimini egallaganlar. Amirning hamma hukm, farmoyishlarini ijro etuvchi sohibi xaros yoki amir (xaros) oliy siyosiy hokimiyatni boshqargan. Davlat siyosati va mafkura islom diniga asoslangani uchun Somoniylar davlatida ham xalifalik boshqaruv tartiblarini takrorlovchi, ayni vaqtda esa mahalliy turkiy xalqlarning davlatchilikdagi tarixiy an'analarini o'zida mujassam qilgan davlat boshqaruv tizimi shakllantirildi. Somoniylar saroyida ham devonboshilar, mirzaboshilar, miroxo 'rlar va boshqa mansablar mavjud bo'lgan. Markaziy boshqarma 10 ta devondan iborat bo'lgan. Devonlarning eng kattasi vazir devoni hisoblanib, boshqalari unga bo'ysungan.[3:73-74-b]

Davlatda quyidagi devonlar faoliyat ko'rsatgan:

1. Devoni vazir (bosh vazir devoni). Bu devonga qolgan barcha devonlar bo'ysungan. Bosh vazir devoni barcha ma'muriy, siyosiy, xo'jalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan.

2. Devoni mustafiy (moliyaviy ishlar devoni). Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilib, uning ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo'lgan.

3. Devoni amid al-mulk, yoki al-rasail (rasmiy hujjatlar devoni).

Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu devon chet davlatlar bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarni ham nazorat qilgan.

4. Devoni sohib-ash-Shurot (harbiy ishlar devoni). Bu devon davlatning butun harbiy ishlarini nazorat qilgan, jumladan, amirning shaxsiy qo'shinini (gvardiyasini) boshqargan. Ushbu **devonboshining maxsus yordamchisi** - ariz bo'lgan. U mahkama va uning boshlig'i amir qo'shini xazinasi bilan shug'ullangan. Qo'shinga bir yilda to'rt marta maosh to'langan. Bu devon harbiy intizomni ta'minlab turgan.

5. Devoni sohib al-borid (xat-xabarlar nazoratchisi devoni).

Ushbu devon markazda qabul qilingan muhim qarorlar. hujjatlar, xabarnomalarni

viloyat va shaharlarga yetkazish bilan shug'ullangan. Bu devonning viloyatlardagi boshlig'i faqat markazga bo'ysungan. Bu devon xodimlari viloyat va shaharlarda bo'lib turadigan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni markazga yetkazib turgan. Shuningdek, bu devon davlat elchilari, viloyat va

shaharlar hokimlari ustidan maxfiy nazorat o'rnatgan.

6. Devoni muhtasib (bozorlar va ko'chalar, shariat qonun-qoidalariga rioya qilishni nazorat qiluvchi devon). Bu devon xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartib-intizomni, tosh-tarozini nazorat qilish edi. Aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilishning nazorati ham shu devon zimmasida bo'lgan. Ushbu devonboshi o'z mirg'azab (xodim)lari bilan barcha shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.

7. Devoni mamlakai xos (davlat ish boshqaruvchisi devoni). Bu devon saroy ta'minoti bilan bog'liq sarf-xarajatlarni nazorat qilgan. Muhim davlat ishlari va ayniqsa, xazina kirim-chiqimini nazorat qilish ham shu devon zimmasida bo'lgan.

8. Devoni vaqf (vaqf yerkari devoni). Masjidlar, madrasalar, umuman diniy muassasalar ixtiyorida bo'lgan yer-suv, mol-mulk kabilami boshqargan.

9. Devoni qozi az-ziyo (qozilik ishlari devoni). Bu devonni davlatning bosh qozisi boshqargan. Devon barcha viloyatlar va shaharlardagi qozilar faoliyatini nazorat qilib turgan.

10. Davlat mulklari devoni. Bu devon hukmdor sulolaga tegishli mol-mulk boshqaruvi, nazorati, hisob-kitobi bilan shug‘ullangan.

Somoniylar davlatidagi markaziy hokimiyat boshqaruvi ta‘sirida xo ‘jalik hayoti ham o ‘sib asta-sekinlik bilan rivojlanib bordi. Mamlakat xo ‘jalik hayotida “iqto” mulklarining o‘rni katta edi. Bu mulk egalari esa iqtodor deb yuritilgan. Iqtodorlar ko ‘pgina mulklarini davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun yer va suv shaklida olganlar. Iqto shaklida hatto viloyatlar, vohalar, shahar va tumanlar hadya qilingan. Somoniylar davrida xo‘jalikning barcha sohalari, dehqonchilik va chorvachilik rivoj topdi. Sug‘orish shaxobchalarining kengayishi, suv inshootlari (kanallar, ariqlar, to‘g‘onlar)ning ko‘plab bunyod etilishi natijasida ziroatchilikning nuhim tarmoqlari – g‘allachilik, sholikorlik, polizchilik, bog‘dorchilik tez o‘sib bordi. Bu sohalar, ayniqlsa, Zarafshon, Qashqadaryo, Shosh, Farg‘ona vodiysi va Xorazm vohasida ko ‘proq rivojlandi. Murg ‘ob, Buxoro, Samarqand va Shosh atroflarida paxtachilik maydonlari kengaydi. IX-X asrlar xo‘jalik hayotida hunarmandchilik ham alohida o ‘rin tutgan. Shaharlarda to‘qimachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik singari hunar turlari ancha rivojlandi. Bu esa shaharlar qiyofasining keskin o‘zgarishiga, ularda oliy imoratlar masjid-u madrasalar, ko ‘rkam rastalar-u karvonsaroylarning qad rostlashiga olib kelgan. Buxoroda kumush tanga va dirham zarb qilingan. Narshaxiyning yozishicha, Buxoroda bayt-ut-tiroz, ya ‘ni to‘qimachilik korxonasi bo‘lgan. Buxorodan zandanicha nomli matoni Shom, Misr, Rumga olib ketganlar. Somoniylar davlati feodal yer egaligiga asoslanganligi tufayli undagi mulkiy bo‘linish ham turli xil shakllarga ega bo‘lgan. Bular quyidagilardir: 1) mulki sultoniy – sulton (amir)ga tegishli yerlar; 2) mulk yerlari – xususiy mulk yerlari; 3) vaqf yerlari (machit, madrasa va boshqa diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar); 4) jamoa yerlari. Olinadigan soliqqa qarab yerlar ikkiga bo‘lingan: a) “Mulki xiroj” – xiroj yerlar, ya’ni soliq olinadigan yerlar; b) soliq to‘lashdan qisman yoki butunlay ozod etilgan yerlar. Somoniylar davrida ko‘pchilik dehqonlar turli xil soliq va to‘lov

turlaridan tashqari davlat tomonidan ko‘plab majburiyatlarni o ‘tashga ham jalgan etilgan. Suv inshootlarini tozalash, ta‘mirlash, to‘g‘onlar, ko‘priklar, yo‘llar qurish shular jumlasidan edi. Bunday og‘ir ishlarga jalg qilingan odamlar haftalab, o‘n kunlab, ba’zan esa oylab o‘z hisobidan ishlab berishga majbur edilar. Qishloqlarda esa yersiz dehqonlarning ko‘pchiligini kadivorlar, ya‘ni yollanib ishlovchi korandalar tashkil etardi. Korandalar IX-X asrlarda “sherik” yoki “barzikor”, Xurosonda esa “akkor” deb atalgan.[4:351-352-b]

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, Somoniylar davlatining bashqaruv tizimi Tohiriyalar, Safforiylar va G‘aznaviyarning davlat boshqaruvidan tubdan farq qilgan. Markaziy boshqaruv tizimining yakdilligi va barcha mansablarni to‘g‘ridan – to‘g‘ri hukmdorga bo‘ysunishi va hisobot berishi markaziy hokimyatda kuchli intizom borligidan darak beradi. Saroydagи va mahalliy boshqaruvdagi mansablarning barchasi o‘z mehnatlari va sadoqatlari bilan mamlakat rivoji uchun o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘sghanlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNSLIK INSTITUTI MARKAZIYOSIYO XALQLARI TARIXI KAFEDRASI.** Mualliflar jamoasi. O‘ZBEKISTON TARIXI fanidan ma’ruzalar matni. Toshkent-2015. –B. 180.
- 2. BOZAROV NURALIBEK SAIDMUROD O‘G‘LINING “O‘RTA OSIYODA BIRINCHI RENESSANS DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI TARAQQIYOTI”** mavzusidagi BITIRUV MALAKAVIY ISHI. DENOV-2022. – B. 66.
- 3. Shamsiddin Kamoliddin, Timur Kocaoglu.** “O‘zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasи (IX – X asrlar)”, Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakultetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2024. –B. 156.

4. A.S. Sagdullayev. O'ZBEKISTON TARIXI: I kitob./B.J. Eshov, A.A. Odilov, A.B. Xoliquulov, A.M. Xidirov, O'.M. Mavlonov, O.P. Kobzeva/ Darslik. Toshkent:"NIF MSH", 2024. –B. 604.